



*Umida ABDULLAYEVA,*  
*Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: abdullayevaumida@mail.ru*

*DSc, dotsent S.Zokirova taqrizi asosida*

### ARTISTIC FEATURE OF PERFORMANCE LYRICS

Annotation

This article provides information about the types of performance texts, which differ from each other according to the subject and stylistic features of the lyrics, and in order to fully reveal the problem, the poems of the poets Erkin Vahidov, Usman Azim, Halima Xudoyberdiyeva are analyzed. .

**Key words:** Performance lyricism, event, lyrical thinking, immanence, subjectivity.

### ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ОСОБЕННОСТЬ ТЕКСТОВ ИСПОЛНЕНИЯ

Аннотация

В данной статье представлены сведения о типе исполнительской лирики, которые различаются по предметности текста песни и ее стилистическим особенностям, а также с целью полного раскрытия проблемы были проанализированы стихи поэтов Эркина Вахидова, Усмана Азима, Халимы Худойбердыевой.

**Ключевые слова:** Ролевая лирика, феномен, лирическое мышление, имманентность, субъективность.

### IJROVIY LIRIKANING BADIYLIK XUSUSIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada lirikaning subyektivligiga ko‘ra farqlanuvchi ijroviy lirika turi, uning uslubiy xususiyatlari haqidagi ma‘lumotlar keltirilgan hamda muammoni to‘liq ochish uchun shoirlar Erkin Vohidov, Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyeva she‘rlari tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ijroviy lirika, fenomen, lirik tafakkur, immanent, subyektivlik.

**Kirish.** XX asr o‘zbek adabiyotida badiiy estetik tamoyillarning yangilanishida ijroviy lirika muhim o‘rin tutdi. Mukammal ijroviy lirika namunalari yaratish shoirdan teran tafakkur, betakror uslub va badiiy ijodda fenomenlikni talab etadi. Cho‘lpon, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Usmon Azim, Xurshid Davron, Halima Xudoyberdiyeva, Eshqobil Shukur, Yo‘ldosh Eshbek ijroviy lirikalarida o‘zbekona lirik tafakkur imkoniyatlarining rang-barangligi aks etadi. Ijroviy lirika xarakteridagi she‘rlarning mazmuni birinchi shaxs tilidan hikoya qilinadi. Bunda lirik qahramonning rol ijro etish xarakterini matndan tashqari omillar ham belgilashi mumkin. Xususan, o‘quvchi muallif shaxsi haqidagi bilimlarni – immanent (lot.immanens – o‘ziga xos; xususiy)ini uning ijodidagi ijroviy lirika namunalardan bilib olishi mumkin. Ijroviy lirika bu – birinchi shaxs tilidan aytiladigan lirik hikoya hisoblanib, o‘zga shaxs tilidan o‘quvchi ongiga singdiriladi.

Lirikada “Men”ning ijro xarakterini ochish uchun matndan tashqari omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday matnlarga shoirming immanent xususiyati asos sifatida kiritiladi. Ijroviy lirika nazariyasiga ko‘ra, bu kabi she‘rlarda ikki subyektivlik – lirik qahramon va ijroviy qahramon mavjud bo‘ladi. She‘r mazmuni aksar hollarda ana shu qahramonlar sintezi vositasida anglashiladi.

Lirik janrlarning yetakchi nazariyachilaridan biri bo‘lgan B.O.Korman ijroviy lirikani “turli qahramonlar nomidan yozilgan, uning ongi lirik qahramonning ongi bilan mos kelmaydigan she‘rlar” deb ta’riflagan. Adabiyotshunos va tanqidchi Antoni Estxop emperizm (yun.yetrita – tajriba so‘zidan yasalgan, falsafiy oqim)ni ingliz mentalitetining asosiy xususiyati ekanligini isbotladi[7] va shu mavzuda ilmiy asar yozdi. Britaniya she‘riyatidagi ijroviy lirika namunalarning mashhur tadqiqotchisi Robert Langbaum buni

“adabiyotda emperizmning namoyon bo‘lishi”, tajriba she‘riyatini”[5] deb tasnif qildi.

Erkin Vohidovning “Lirik qahramon” nomli she‘ri ijroviy lirika nazariyasini shoir nigohi bilan ochib beradi. Shu ma’noda, she‘rni tahlilga tortish o‘rinli. She‘rning tematik kompozitsiyasiga ko‘ra, dastlabki bandi boshlanma bo‘lib, ramka unsuri bilan birgalikda o‘quvchini she‘rni qabul qilishga emotsional jihatdan tayyorlaydi.

“She‘rni sevib o‘qiyman, ammo

Hayron qilar bir holat meni.

“Men” deb yozar shoir doimo,

Kimdir o‘sha shoirming “men”i?[4]

Keyingi o‘rinlarda bandma-band muammo o‘rtaga tashlanadi. Shoir she‘rxonning “Goh muhandis ul, munajjim goh, Goh o‘zini tolib deb atar / Goh muallim, goh sohib dastgoh... kasbi ko‘pmi uning shu qadar?”, “O‘tmishda ham kelajakdadir, Bormi unga zamon va makon?”, “Shoirlarning xotini bormi? Yo barchaga birdek vafodor?” kabi savollariga javob berishi asosida o‘y-fikr va his-kechinmalari rivoji ochila boradi.

She‘rxon, meni tutding savolga

Tushunaman, o‘quvchim, seni.

Hech taajjub qilma, bu holga,

Sen o‘zingsan, shoirming “meni”[4].

Ijodkorga ilhom beradigan, dard-u hasratlarini she‘r bo‘lib yaralishiga asos bo‘ladigan vosita aslida jamiyatdagi insonlar ekanligi haqiqati ochib beriladi. Shoir “Muallim”, “Abdulla Nabiyev”, “Munajjim”, “Laylo”, “Majnun”, “Ukrain qiz”, “Azganush” qiyofasida o‘z fikrlarini ifoda etadi. She‘r davomida “Tanidingmi, do‘stim o‘zingni?”, “Sen o‘zingsan, shoirming “men”i” misralari takroran qo‘llanib, she‘rda qo‘yilgan muammoning yechimi dalillashga xizmat qiladi. “Yetar, nechun ta’rif-u tavsif, Biz ikkimiz asli bitta jon / Faqat

olim meni muallif, Seni atar lirik qahramon" misralari o'quvchini she'ring yakuniga oid xulosa chiqarishga undaydi. She'r yakunida shunday fikrlar beriladi:

Xoh yasharsan olamda bukun,  
Xoh yaratur seni tafakkur,  
Lekin faqat borliging uchun,  
Qahramonim, senga tashakkur[4].

Ijroviy lirikada muallif yoki lirik qahramon turli vaziyatlarda va ko'rinishlarda harakat qilganda ham rivoyat lirik qahramon nomidan aytiladi. Uning muallifdan uzoqligi ularning qarashlari orasidagi farqda ifodalanadi. Lirik qahramon va ijroviy qahramon ikki turdagi ong egalari hisoblanadi. Usmon Azimning "Sirk. Muallaqchi ayol" she'ri bunga misol. Ushbu ijroviy lirika namunasida shoir ayol dunyosiga kirib borishga harakat qiladi. Shoir o'z xarakter xususiyatidan kelib chiqib, ijro qahramoni bilan lirik qahramon o'rtasidagi farqqa erisha oladi: ijro qahramoni o'z orzulari dunyosiga ega, qat'iy, ma'naviy jihatdan kuchli, taqdiridan nolimaydigan, hayot qiyinchiliklarini yenga oladigan irodali shaxs. Bu she'rda ayollar tabiatan dardlarni yengishda erkaklarga qaraganda kuchli ekanligi isbotlanadi. "Men – qushman. Vujudim shift sari o'rlar / Men beg'am yashadim. Uchdim men beg'am" misralari buning isboti. Shuningdek, she'rda yillar davomida o'z muhabbatiga sodiq qolib, sevgi uchun qurbon bo'lishga qodir ayollarning xususiyatlari kuzatiladi.

Nog'orachi, chalgin! Bo'zlab qo'shil, nay!  
Skripka, yangra men uchun yonib! –  
Topib yo'qotganim baxt uchun uchay...  
Yelkadan qo'lingni olsang-chi, jonim![2]

Bu o'rinda shoir A.A. Fet aytganidek, "Begona lahzalarni o'zinikidek his eta oladi", ya'ni ayol hislarini mohirona ifoda etadi. Lahzalik baxtdan masrur, xayol singari falakda kezgan gimnastikachi ayol o'z baxtini butun umrini bag'ishlagan sirk arenalarida deb biladi. U shunday shiddatli va mohirki, qalbida yashirin bo'lgan sevgi va rashk unga g'ayritabiiy kuch ato etadi, shu sabab yillar davomida uchib yurgan halqalar-u, arqonlarni uzib, binoning shiftini yorib chiqishga-da qodir.

Men senga aytdim-ku: bu bino – qafas,  
Qo'llarimni baland ko'targin, kiftim!  
O'zimni balandga otaman besas...  
Yorilib ketadi binoning shifti!

She'r ijroviy qahramon ruhiy holati tasvirining mukammalligi bilan ham ahamiyatli. Hayot sinovlari va jismoniy mashqlarda toblangan gimnastikachi ayol sevgilising birgina nigohi oldida taslim:

Vujudim ketadi birdan uvishib,  
Qo'llarim silkinmas, toliqar kiftim...  
Tomingga qo'naman har kun qunishib –  
Qachon yoriladi uyingning shifti?[2]

Shu o'rinda bir mulohaza, "Ayolni faqatgina sevib qilurlar taslim...", degan fikrdan kelib chiqib, sevilinmagan kishi yonida taslim bo'lish va shiftni yorib-da chiqib ketishga intilish lirik qahramonning kredosi. Ma'shuqaning e'tiboriga sazovor bo'lish uchun hamma narsaga tayyor. Sevgi yo'lida

qurbon bo'lish – erkak jinsiga xos xususiyat. Alisher Navoiy aytganlaridek:

Shayxni andoqki shaydo etdi ishq,  
Olam ahli ichra rasvo etdi ishq.

Arastuning fikricha, shoir o'z shaxsini o'zgartirmagan holda, o'z-o'zi bo'lib qolaveradi[1]. Shu ma'noda, Usmon Azimning "Sirk. Muallaqchi ayol" ijroviy lirikasida ijroviy qahramon bilan lirik qahramon sintezini ko'rish mumkin.

Ijroviy lirika qahramonini yaratishda shoir she'riy matnning semantik markazida "men"ni ijro ettirish uchun uni hammaga tanish bo'lgan boshqa obrazlar bilan birlashtiradi. Halima Xudoyberdiyevaning "To'marisning aytgani" (1985-yil) ijroviy lirikasi buning dalilidir. Xronotop she'ring voqeeligi va ijodkor g'oyasini to'liq ochib beradi. "Ayolning og'iri, qo'rg'oshini men, qasos meni ham silkitdi, qo'ymadi / Qonli xumga tiqdim, yov boshini men, qonga to'ysin dedim, to'ymadi!"

Ijodkor ijroviy qahramon (To'maris) timsolida qasoskor ayol ruhiyatini ochib beradi: "Men ham nafis edim, sitora edim / Qasosimga bo'yinsunmaganimda". Qasos olish – milliy etikamizga xos bo'lmagan xususiyat, aslida. Lekin millat uchun, g'urur va or uchun kurashish milliy g'ururni shakllantiradi. Sarbadorlar harakati, milliy ozodlik harakatchilarining faoliyati milliy g'urur, or uchun olib borilgan harakatlarning bir ko'rinishi.

Isonkor shoira ijroviy qahramon tilidan farzand-u nabiralarni ham g'urur, or uchun halol kurashga chaqiradi:

Nabiram, senga ham yetadi bu xun,  
Asli yo'q narsani so'ramam Sendan.  
Raqib duch kelganda yig'lamay mahzun,  
Qon yuqi xanjaring sug'urgin qindan[3].

She'rda lirik qahramon o'z hissiyotlarini ijroviy qahramon vositasida ochiq ifoda etishdan cho'chimaydi. Ijroviy lirika qahramoni lirik qahramonning o'ziga xos rivojga mahsuli hisoblanib, hatto farzandining o'limi ham uning g'ururini sindirolmasligi, zaif va himoyasiz qilolmasligini ko'rsatadi. Shuningdek, she'ring mazmunidan shoiraning badiiy olamidagi ayolning har qanday erkaklardan ham ruhan kuchli ekanligi, butun avlodi va naslini himoya qilish uchun hech narsadan qaytmay kurasha olishi anglashiladi. "Qasos havolarin ochlik bilan yut, Garchand sitorasan, nafis ayolsan / Mening gumonim yo'q ketmog'iga o't, Sen agar 'o't ketsin" deya qo'zg'olsang..." To'marisning jasorati haqida xalq dostonlari yaratildi, jangnoma va rivoyatlar to'qildi. Ergash Jumanbulbul o'g'lidan Hodi Zarifov yozib olgan "Oysuluv" dostonida Turon mamlakatining podshosi Oysuluv obrazida To'maris faoliyati o'zining badiiy talqinini topgan. Mirkarim Osimning "To'maris" qissasi, Ibrohim Yusupovning "To'maris" (1974) dostoni, bastakor Ulug'bek Musayevning "To'maris" (1982) nomli baletida To'marisning jasorati ulug'lanadi.

Ijroviy xarakterdagi she'rlarning sarlavhasi, sarlavha ostidagi izohi, epigrafi yoki asosiy matnning o'zida kechinma egasiga ishora mavjud bo'ladi. Ijroviy lirika ikki subyektivlikka asoslanadi hamda unda lirik qahramon va ijroviy qahramon subyekt mavjud bo'ladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Arastu. Poetika. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – B.70.
2. Azimov U. Saylanma. –Toshkent: Sharq, 1995. – B.170-171.
3. Xudoyberdiyeva H. Yo'ldadirman. – Toshkent: Sharq, 2006. –B. 92.
4. Vohidov E. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2018. – B.219.
5. Langbaum R. The Poetry of Experience. The Dramatic Monologue in Modern Literary Tradition. Lnd., -N.Y., 1957. – B.261.
6. Hamdam U. Yangi o'zbek she'riyati. – Toshkent: Adib, 2012 – B. 255.
7. Easthope A. Englishness and National Culture. Lnd.-N.Y., 1999. – B. 243.